



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

FARG‘ONA VODIYSI OILALARINING URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING IJTIMOIY JARAYONLARDAGI TRANSFORMATSIYASI

Xudoyberdiyev Sherzodbek Rahimberdi o‘g‘li

University of Economics and Pedagogy, assistant

Annotatsiya

Maqolada Farg‘ona vodiysining geografik joylashuvi, vodiylar oila urf-odatlari va qadriyatlarining o‘ziga xos milliy mental xususiyatlari bayon qilingan. Vodiylar turmush-tarzi, oila urf-odatlari va qadriyatlarining transformatsiyasi va uning ijtimoiy jarayonlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy manbaalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, vodiylar, urf-odat, qadriyat, axoli, etnik jarayonlar, siyosat, mustaqillik.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЫЧАЕВ И ЦЕННОСТЕЙ СЕМЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ

Худойбердиев Шерзодбек Рахимберди угли

University of Economics and Pedagogy, ассистент

Аннотация

В статье описаны географическое положение Ферганской долины, специфические национальные ментальные особенности, семейные традиции и ценности долины. На основе научных источников проанализирована трансформация долинного образа жизни, семейных традиций и ценностей и ее проявление в социальных процессах.

Ключевые слова: Ферганская долина, долина, традиция, ценности, население, этнические процессы, политика, независимость.

TRANSFORMATION OF CUSTOMS AND VALUES OF FAMILIES OF THE FERGANA VALLEY IN SOCIAL PROCESSES

Xudoyberdiyev Sherzodbek Rahimberdi o‘g‘li

University of Economics and Pedagogy, Assistant

Abstract

Describes the geographical location of the Fergana Valley, specific national mental characteristics, family traditions and values of the valley. Based on scientific sources, the transformation of the valley way of life, family traditions and values and its manifestation in social processes is analyzed.

Keywords: Fergana Valley, valley, tradition, values, population, ethnic processes, politics, independence.

Farg‘ona vodiysi — O‘rta Osiyodagi tog‘lar oralig‘ida joylashgan yirik vodiylar bo‘lib, shimoldan Tian Shan, janubdan esa Hissar-Alay tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan hudud hisoblanadi. U O‘zbekistonning aholi eng zich joylashgan hududlaridan biri sanaladi. Farg‘ona vodiysining markaziy qismini mamlakatimizning eng zich joylashgan viloyatlari — Fergana Region, Namangan Region va Andijan Region tashkil etadi. Vodiylarning chekka qismlarida esa qo‘shni Kyrgyzstan Respublikasining Jalal-Abad Region, Osh Region, Batken Region viloyatlari hamda Tajikistan Respublikasining Sughd Region hududlari joylashgan.

Bu yerda deyarli barcha turdagi tabiiy landshaftlar — qumtepalar, adirlar, tog‘ oldi hududlari va alp o‘tloqlarini uchratish mumkin. Vodiylar quruq kontinental iqlimi bilan ajralib turadi. Baland tog‘ tizmalari nam havo oqimlari uchun tabiiy to‘siq hosil qiladi. Shunga qaramay, vodiylarda dehqonchilik va chorvachilik keng rivojlangan. Hudud orqali Syr Darya, Naryn River hamda boshqa ko‘plab daryolar oqib o‘tadi. Tog‘larda archa, do‘lana va boshqa mevali daraxtlar hamda rezavor o‘simliklar uchraydi.

Fargʻona vodiysida oqar suvlar juda koʻp. Togʻlardan Kara Darya, Sokh River, Isfara River, Shohimardonsoy, Oqbura, Gʻovasoy va Chodaksoy kabi daryo hamda soylar oqib tushadi. Daryolar, asosan, qor va yomgʻir suvlaridan toʻyinadi. Fargʻona vodiysida paxtachilik, ipakchilik va uzumchilik rivojlangan sohalar hisoblanadi. Vohada paxta, ayrim hududlarda esa sholi ekiladi, shuningdek bogʻlar, uzumzorlar va polizlar keng tarqalgan.



Vodiy hududi: Oʻzbekiston, Tojikiston, Qirgʻiziston

Maydoni: 7900km² (22 ming km²)

Aholisi: 10.081 kishi (Andijon 3253.5, Namangan

XVIII–XIX asrlarda vodiy Kokand Khanatening markazi boʻlgan, keyinchalik esa 1876-yilda Russian conquest of Kokand natijasida Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan. XX asr oxirlariga kelib Sovet Ittifoqining parchalanishi va mustaqil davlatlarning tashkil topishi sababli hududiy chegaralar ajrala boshladi. Natijada Fargʻona vodiysi uch davlatning oʻziga xos siyosati va qonunlari asosida shakllangan hududga aylandi.

1991-yilda uch davlatning mustaqillikka erishishi bilan chegaralar va bojxona postlari tashkil etilib, uch hudud oʻrtasidagi oʻzaro izolyatsiya kuchaydi. Shu bilan birga, Fargʻona vodiysida azaliy doʻstlik, oilaviy, diniy va savdo aloqalari toʻliq yoʻqolib ketmadi. Bu, ayniqsa, vodiyning gʻarbiy qismida Oʻzbekiston va Tojikiston aholisi, sharqiy hududlarda esa qirgʻiz va oʻzbek xalqlari oʻrtasidagi qarindoshlik va oilaviy aloqalarda namoyon boʻladi.



Sovet hokimiyatining parchalanishi natijasida chegaralar ajratildi va mustaqil davlatlar shakllandi. 1991-yilda Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng Fargʻona vodiysi tarkibida Andijan Region, Fergana Region va Namangan Region viloyatlari belgilandi.

Fargʻona vodiysining oʻziga xos iqlimi, geografik joylashuvi, aholining turmush tarzi, diniy eʼtiqodi, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish tizimi koʻplab tadqiqotchilarda doimo katta qiziqish uygʻotib kelgan. Vodiyning geografik joylashuvi hamda inson yashashi uchun zarur tabiiy resurslarga boyligi ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Fargʻona vodiysi turmush tarzida diniy qadriyatlarning oʻrni katta boʻlib, ular qadimdan hozirgacha shakllanib kelgan oila urf-odatlar va qadriyatlar tizimida namoyon boʻladi.

Qadimgi ibtidoiy jamoa dinlaridagi diniy qadriyatlarning milliy qadriyatlarda aks etayotganligini koʻrish mumkin. Animizm, fetishizm va totemizm dinlaridan saqlanib qolgan ayrim odatlar hozirda ham oilaviy munosabatlarda aks etmoqda. Jumladan, Fargʻona vodiysida uy ilonlari, ayniqsa, oq ilon moʻtabar sanalgan. Xonadonda, hovlida oq ilon paydo boʻlishi qut-baraka va yaxshilikdan dalolat beradi. Shu sababli oq ilonni koʻrgan kishilar uning ustiga un sepib, kosada sut qoʻyganlar.

Baliq ibtidoiy kishilar ongida gʻayrat tabiiy hodisa, atrofni yovuz ruhlardan tozalovchi, odamlarga tetiklik, kuch va gʻayrat ato etuvchi ilohiy jonzot timsolida gavdalangan. Shu sababga binoan qavmlar orasida u bilan bogʻliq turli xil urf-odat va udumlar tizimining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan [2, 30].

“Avesto”da oilaviy urf-odat va qadriyatlarga alohida eʼtibor qaratilgan. Oiladagi er va xotinning oʻrni, vazifa va majburiyatlari qatʼiy belgilangan boʻlib, unga hammaning amal qilishi majburiy hisoblangan. Bundan tashqari, farzandlar va ota-onalar oʻrtasidagi rishta ham muqaddaslashtirilgan. Sogʻlom farzandlarni dunyoga keltirish, ularni parvarishlab boqish va yovuz ruhlardan himoya qilish har

bir ota-onaning majburiyati hisoblangan. Homilador ayol bilan tugʻilajak bolani yovuz ruhlardan himoya qilish maqsadida turli urf-odatlar qoʻllanilgan. Yaʼni homilador ayolning qorongʻi vaqtda yolgʻiz yurishi man qilingan; homilador ayolga bolasi oʻlib qolgan yoki tugʻmaydigan xotinlar izini bosish taqiqlangan. Ayollar ushbu koʻrsatmalarga amal qilmasa, tugʻilajak bolasiga ziyon yetishi mumkinligidan qattiq qoʻrqanlar. Bundan tashqari, farzand dunyoga kelganida qattiq nazorat ostida chilla saqlaganlar.

Yurtimiz hududiga islom dini kirib kelishi munosabati bilan Fargʻona vodiysi oila munosabatlarida otashparastlik dini va undagi oilaviy qadriyatlar oʻzgardi. Hozirda esa ushbu qadriyatlarning aksariyati ahamiyatini yoʻqotgan. Islom taʼlimotiga asosan, er-xotinlik aloqasi nikohlanmoqchi boʻlgan ikki tarafdan birining nikohlanish ragʻbatini bildirishi va ikkinchisining oʻsha ragʻbatni qabul qilishi ila yuzaga chiqadi [8, 528]. Yaʼni nikoh ikki tarafning roziligi asosida quriladi. Nikoh aloqasi haqida Qurʼoni Karimda oyatlar, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning hadislarida oʻnlab taʼlimotlar hamda islom fiqhida qator hukmlar keltirilgan [8, 528]. Unga koʻra, oila aʼzolarining oiladagi huquq va burchlari qatʼiy belgilab qoʻyilgan.

Islom dini vodiy hayoti va turmush tarzida muhim ahamiyatga ega boʻlib, oila urf-odatlarini va qadriyatlarini sharʼiy aqidalar asosida tartibga soladi. Unga koʻra, oilada otaning oʻrni alohida ahamiyatga ega. Ota oila boshligʻi, oilaning moddiy va maʼnaviy taʼminotchisi, jamiyat va davlat boshqaruvchisi, oila va jamiyatda hukm chiqaruvchi hamda qaror qabul qiluvchi inson sifatida talqin etiladi. Hadisi sharifda keltirilishicha: “Er kishi oʻz ahli baytida rahbardir va u oʻz qoʻl ostidagidan soʻralur” [8, 528]. Yaʼni ota boʻlishlik buyuk sharaf boʻlib, oila aʼzolarining boshligʻi, oilaning boshqaruvchisi hisoblanadi. Oila aʼzolari har bir ishni oila boshligʻi bilan maslahatlashishi, ota rozi boʻlgandagina biror ishga qoʻl urishi nazarda tutiladi. Oilada otaning huquqlari bilan birgalikda majburiyatlari ham mavjud. Ota oila aʼzolarini moddiy va maʼnaviy taʼminlamogʻi shart hisoblanadi.

Imom al-Buxoriy “Al-jomeʼ as-sahih” hadislar toʻplamida oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oila urf-odatlarini va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda boʻlish kerakligini taʼkidlaydi. Abdulloh roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Biz Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bilan birga gʻazot qilur erdik, hech narsamiz, yaʼni xotinlarimiz yoʻq erdi. Shunda biz: “Yo Rasululloh, dunyodan toq oʻtaylikmi?” — dedik. Ul zot bizni bunday qilmoqdan qaytardilar, soʻng mahriga bir koʻylak berib boʻlsa ham, uylanmogʻimizga ruxsat berdilar. Keyin: “Ey moʻminlar, Alloh taolo sizlarga halol qilgan neʼmatlarni harom qilmangizlar va tajovuz qilmangizlarki, Alloh taolo tajovuz qilguvchilarni yaxshi koʻrmaydi”, degan oyati karimani bizga qiroat qildilar” [1, 263].

Imom Gʻazzoliy yigit kishi uchun halol luqmani qoʻlga kiritishga kirishish, oilasining haq va huquqini oʻylash, farzand koʻrish uchun harakat qilmoq va ayollarining turli feʼllariga sabr etmoq ham ibodat turlaridan deb hisoblaydi [4, 20].

Hozirgi zamon diniy ulamolaridan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila” kitobida oilaviy munosabatlarni tartibga solishda diniy qadriyatlar, urf-odatlar va sharʼiy amallar boʻyicha maʼlumotlar berilgan. Ushbu asarida muallif oilalarda uchrayotgan zamonaviy muammolar, Sharq va Gʻarbdagi oila masalalarini atroflicha yoritib bergan.

Fargʻona vodiysida oʻtkazilgan ekspeditsiya va tadqiqotlarda geosiyosiy hamda noilmiy yondashuvlar ham vujudga kelgan. Fargʻona vodiysini oʻrganishga Sovet siyosati katta eʼtibor qaratdi. Fargʻona vodiysining zamonaviy tadqiqotchilari mintaqani geosiyosiy, geografik va ijtimoiy jihatdan tahlil qildilar.

V. Nalivkin va M. Nalivkinalar islom qoidalari hamda mahalliy madaniyat meʼyorlarining ideal turlarini bayon qilgan ekan, urf-odatlar va mahalliy qonun-qoidalarga aholi amal qilishiga qaramay, oʻsha qoidalarning buzilish holatlarini ham izohlaydilar. Jumladan, Fargʻona vodiysida xonliklar tugatilishi va Rossiya imperiyasi hukmronligining boshlarida ayollar Ramazonni oʻtkazmaganligi, begona erkaklar bilan qorongʻida gaplashishi, turmushga chiqmasdan homilador boʻlib qolgani, fohishalik qilgani kabi illatlarni bayon qiladilar [7].

Moskva Etnografiya va antropologiya instituti doktori Sergey Abashin vodiya tadqiqot ishlarini olib bordi. U Sovet Ittifoqi tarqalishi, ittifoqdan ajralib chiqqan davlatlar orasida oʻzaro chegaralarning boʻlinishi va uning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrgandi.

Sergey Abashin etnologiya va antropologiya masalalari boʻyicha ham tadqiqotlar olib borgan. U Markaziy Osiyodagi millatchilik masalalarini, Fargʻona vodiysining etnik kelib chiqishi, etnik jarayonlari va etnik muammolarini oʻrgangan [6].

Fargʻona vodiysi suv muammolari boʻyicha doktor Kristin Bichsel 1991-yilda Sovet hokimiyatining parchalanishi sabab Markaziy Osiyo, jumladan, Fargʻona vodiysidagi suv muammolari va

chegaralarning bo‘linishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rgangan [3, 58–60].

Muhokama. Vodiya madaniy xilma-xillik kuzatiladi. Bunga vodiyning geografik joylashuvi va tarixan turli etnik guruhlarning hududga kirib kelishi sabab bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan, ushbu hududda turli tillarda, jumladan, rus, turk va tojik tillarida muloqot qiluvchi aholini uchratish mumkin. Farg‘ona vodiysi diniy va siyosiy maqsadlarda ham o‘rganilgani manbalar orqali ayon bo‘ladi. Vodiyni o‘rganish doimo tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otgan. Vodiyning tarixan murakkab va notinch hayot tarzi ko‘pchilikning diqqat markazida bo‘lgan. XVII asrdagi suv toshqini, 1920-yildagi kuchli zilzila nafaqat vodiya, balki butun Markaziy Osiyoga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Ammo so‘nggi sovet davridan boshlab eng katta muammo ijtimoiy va madaniy ziddiyatlar bo‘ldi. SSSR davrida va uning parchalanishi arafasida majburan ko‘chirilgan aholi guruhlari o‘rtasida ziddiyatlar paydo bo‘ldi. 1989-yilda o‘zbeklar va mesxeti turklari o‘rtasidagi ziddiyat, 1990-yilda O‘sh shahrida o‘zbeklar va qirg‘izlar o‘rtasidagi nizoli vaziyat, 1992-yilda Namanganda diniy zo‘ravonlikning avj olishi kabi masalalar katta tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2000-yilda musulmon ekstremistik guruhlari butun vodiya bo‘ylab ko‘chib o‘tishga harakat qilgan [5]. Keyinchalik, 2005-yil 13-mayda Akromiyar harakati Andijon viloyatida terroristik harakatlarni amalga oshirdi. Hozirgi vaqtga kelib vodiya uch mustaqil davlatga bo‘linib ketgan bo‘lsa-da, aholi turmush tarzidagi aloqalar, oila urf-odatlari va qadriyatlaridagi hamjihatlik saqlanib qolgan. O‘zaro quda-andachilik, qarindoshlik va hamdo‘stlik munosabatlari vodiya aholisini bir-biri bilan ijtimoiy jihatdan bog‘lab turadi. Farg‘ona vodiysi haqida xalqaro miqyosda chop etilgan ilmiy ishlar va maqolalar bugungi kunda mintaqadagi iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy jarayonlarni yoritib berishga harakat qiladi. Lekin barcha manbalar ham xolislik nuqtai nazaridan bayon qilinmagan. Ko‘plab ma‘lumotlar geostrategik maqsadlarda ham qo‘llanilgan.

Natijalar. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysini kompleks rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Oila urf-odatlari va qadriyatlari dolzarb masalaga aylandi. Farg‘ona vodiysini tadqiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlariga tashriflari davomida vodiya aholisi oila urf-odatlari va qadriyatlarini mustahkamlash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Viloyatlarga tashriflari davomida Prezident bir qator xonadonlarda bo‘lib, oilalarning yashash tarzi, yaratilayotgan imkoniyatlar va mavjud kamchiliklar yuzasidan suhbatlar olib bordi. Amaldagi kamchiliklar bartaraf etildi, takliflar qabul qilindi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vodiya tarixi va madaniyati Markaziy Osiyo mintaqasining yuksalishiga beqiyos hissa qo‘shgan. Farg‘ona vodiysi aholisi doimo o‘zgaruvchan bo‘lganligini ham ta‘kidlash joiz. O‘tgan yillar va tarixiy o‘zgarishlar natijasida vodiya hududlariga turli tomondan muhojirlar to‘lqinlari kirib kelgan. Jumladan, bu yerda nafaqat turkiy va eroniy xalqlar, balki ruslar va boshqa slavyanlar, armanlar, nemislar hamda qrim tatarlari ham istiqomat qilib kelmoqda. Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li mintaqadagi ko‘plab sohalarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Bu yo‘l orqali ipak, qimmatbaho toshlar, oltin va kumush taqinchoqlar, rangli shisha bezaklari, farmatsevtika mahsulotlari va bo‘yoqlar, zotli otlar hamda turli xil mevalar olib o‘tilganligi manbalarda keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu yo‘l diniy missionerlar, usta hunarmandlar, musiqachilar, aktyorlar va rassomlar uchun ham tajriba almashish maydoni vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi‘ as-sahih (ishonarli to‘plam). – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – 3-jild. – 263 b.
2. Ashirov Adhamjon. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 270 b.
3. Bichsel C. Liquid Challenges: Contested Water in Central Asia // Sustainable Development Law & Policy. – 2011. – Vol. 12. – No. 1. – P. 24–30, 58–60.
4. Imom G‘azzoliy. Uylanish odobi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 20 b.
5. Starr S. F. Ferghana Valley: The Heart of Central Asia. – Armonk; New York; London: M.E. Sharpe, 2011.
6. Абашин С. Н. Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – Москва: Наука, 2004.
7. Наливкин В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Москва: Книга по Требованию, 2015. – 249 с.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-nashr, 2018. – 528 b.